



SIROJIDDIN SAYYID PUBLITSISTIKASIDA IJOD VA SHOIR SHAXSIYATI MASALALARI

Quranbayeva Gulianbar Umirbek qizi,

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti doktoranti
0009-0007-0934-7990

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18242502>

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy o'zbek adabiyotining yetuk namoyandasi — **Sirojiddin Sayyid** publitsistikasida she'r va shoirlik masalalarining badiiy-falsafiy talqini tadqiq etiladi. Ijodkorning esse, badiya va publitsistik maqolalarida shoirlik maqomi, ijod mas'uliyati, iste'dod, mutolaa va so'zga munosabat masalalari qanday estetik va axloqiy mezonlar asosida yoritilgani tahlil qilinadi. Tadqiqotda publitsistika va badiiyat uyg'unligi, lirik subyektivizm hamda gumanistik qarashlarning badiiy ifodasi ochib beriladi. Maqola natijalari Sirojiddin Sayyid publitsistikasining zamonaviy adabiy jarayondagi o'rni va ahamiyatini belgilashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: badiiy publitsistika, esse, portret-maqola, adabiy xotira, muallif "men"i, poetik tafakkur, Vatan mavzusi.

Kirish. Ma'lumki, adabiy asarlar orasida eng sarta'sir janrlar lirik turga mansub janrlarga oid bo'lib, mazkur turga mansub asarlarning ta'sirchanligini ta'min etishga xizmat qiluvchi va uni tavsiflashga qaratilgan eng muhim xususiyat sifatida lirik asarlardagi subyektivizmni aytishimiz mumkin bo'ladi. Lirik asarlardagi subyektivizm, ya'ni hayotiy voqealarga, atrofdagi jarayonlarga, holatlarga shaxs nuqtayi nazaridan baho berish insonning o'z ichki "men"idagi talotumlarni ifoda etishni anglatadi. Lirik asarlarda borliq ijodkorning ichki dunyosi orqaligina o'z ifodasini topadi. Holbuki, ijodkorning ichki dunyosi har bir adabiy asarda ham hal etuvchi rol o'ynaydi, chunki dunyoning, voqelikning badiiy adabiyotdagi in'ikosi oddiy illyustratsiya emas, balki yozuvchining ichki dunyosida maromiga yetgan, "pishib yetishgan" manzaradir. Ana shu jihatlarga ko'ra lirik turdagi asarlarda hayotni aks ettirish boshqa turlarga qaraganda farqli xususiyatlarni namoyon qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Adabiyotshunos **No'mon Rahimjonov** esa "Dil manzillari" maqolasida shoir iste'dodini kamyob hodisa sifatida talqin etib, uning xalq orasidagi e'tibor va muhabbatini ijodiy salohiyat bilan bog'laydi.

Shuningdek, To'xta Boboyevning yozuvchi va shoir mas'uliyati haqidagi nazariy qarashlari Sirojiddin Sayyid publitsistikasining g'oyaviy mohiyatini ochishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Olim ta'kidlaganidek, ijodkorning iste'dodi uning axloqiy va ijtimoiy pozitsiyasi bilan uzviy bog'liq bo'lib, bu jihat Sayyid publitsistikasida yorqin namoyon bo'ladi.



Umuman, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Sirojiddin Sayyid publitsistikasi she'r va shoirlik masalasini nafaqat badiiy, balki falsafiy va ma'naviy mezonlar asosida yoritgan noyob adabiy hodisa sifatida baholanishi mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida adabiyotshunoslik fanida keng qo'llaniladigan bir qator ilmiy metodlardan foydalanildi. Xususan: **Analitik-tahliliy metod** orqali Sirojiddin Sayyidning "Shoir va shoirchilik", "She'riyatda 'kalla' masalasi", "Mutolaa 'tulpori'" kabi esse va maqolalaridagi g'oyaviy-estetik qarashlar tahlil qilindi. **Komparativ (qiyosiy) metod** yordamida ijodkorning shoirlik haqidagi qarashlari mumtoz adabiyot an'analari, xususan, **Alisher Navoiy** qarashlari bilan qiyoslandi. **Germenevtik yondashuv** asosida matnlardagi ramziy obrazlar, badiiy tashbeh va falsafiy mushohadalarning ichki ma'nolari ochib berildi. **Tarixiy-adabiy metod** esa publitsistik asarlarning yaratilish davri va adabiy muhit bilan bog'liqligini aniqlashda qo'llanildi. Mazkur metodlar majmui tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligini ta'minlashga xizmat qildi.

Tahlil va natijalar. ...Bu so'z – bittagina, lekin qiyofalari ko'p, shakl-shamoyillari bisyor, ularning "muborak basharalarini siz yillab ko'rmaysiz", biroq didsizliklari, siyqa-sayozliklari o'zlariga o'xshagan, Navoiydan bexabar, kitob o'qimaydigan "san'atkor"lar bois ommaviy sahnalar, radio-televideniye kanallarini, to'y-hashamlarni ham ishg'ol qilib borayotir". [3:542] Darhaqiqat, ijodkor mazkur maqolada o'ta dolzarb masalani o'rtaga tashlaydi: so'zni savdo-sotiq quroliga aylantirib olgan, umrida kitob ko'rmagan "shoirilar", she'r sexi bo'lgan, nima yozib berishlaridan qat'i nazar sahnaga chiqib ijro etadigan hissiyotsiz otarchilar, nimalarni qoralab tashlaganini o'zlari ham bilmaydigan havaskorlar... Xullas, publitsist maqolasida milliy ma'naviyatimizdagi tobora kattalashib borayotgan kentiklikni yoritar ekan, ijtimoiy mavzuga ham badiiy libos kiydirgan holda xotima beradi: "Keltirilgan misollarning adabiyotga daxli yo'qdir, balki, lekin adabiy jarayon deb atalmish beorom, behalovat bir ummon qa'rida, girdi-atrofida shundoq holatlar ham avjlanib borayotganini, milliy nazokat, bobolardan meros yuksak did-farosatga mutlaqo zid ekanini, ma'naviyatga, yoshlarning axloqi, tarbiyasiga aks ta'sir etayotganini tan olmasdan ilojimiz yo'q"[3:545]

Ijodkor "Mutolaa "tulpori" maqolasida ham so'zni kamolotga yetkazgan kishining o'zi ham shaxs sifatida kamolga yetishini nazarda tutib, hazrat Navoiyning "Chunki topdim ul kalom ichra kamol" misrasiga urg'u berish orqali bugungi yosh qalamkashlarimizga, shoirlikni da'vo qilayotgan uka-singillariga mutolaa qilish shart ekanligini qat'iy talab qilib qo'yadi. Mutolaa "tulpori"ga minmay turib, osmon-u falaklarga uchmoqlikni xayol qilmoqlik ahmoqona ish ekanligini anglatmoqchi bo'ladi:"...ustozlarimiz she'riyatidagi sharqona donishmandlik,



mahorat va so‘zparvarlik maktabida pishmay turib, o‘zbekona lutf-u zarofatning fahmiga bormayin she‘r yozib yurmoq – katta kutubxonaga kirib, serkasini izlab yurgan qo‘ychivonning holatini eslatadi. Shunday payt beixtiyor Qahhor domlaning mashhur epigrafi yodga keladi – “Ey o‘zingni, holatingni bilmagan, Asrorqul”.[3]:540] Publitsist mazkur asarida ham kelajak avlod uchun muhim bo‘lgan konsepsiyani bayon etadi, ya‘ni ma‘rifatsiz yuksaklarga parvoz qilish xomxayol ekanligini kitobxonga donishmandona palitrasi orqali zohir qiladi. Qolaversa, essening ta‘sir kuchiga yuksak pafos bera olgan katta kutubxonaga kirib qolib, serka izlab yurgan qo‘ychivon tashbehi har bir kitobxon ko‘z oldida ilm va ilmsizlik mezonlarini yaxlit o‘lchovlarda muayyanlashtira olgan.

Sirojiddin Sayyid shoirlik rutbasini juda yuksakda ekanligini his qilgan holda, bugungi yoshlarning shunchaki havaskor qog‘oz qoralovchi bo‘lib qolishidan qo‘rqadi. Negaki, ijodkorning o‘zi shu bittagina so‘zda butun bir hayot yo‘lini tasavvur qiladi. Uchrashuvlardan birida shoirga nima uchun aynan shu yo‘lni tanlaganligi borasida savol berishadi. Shunda shoir tuyqus javob berishga qiynalganini his qiladi:”Juda jo‘n, odatiy savol bo‘lsa-da, kishini anchayin o‘ylantirib qo‘yadigan gap. Haqiqatdan ham, nima uchun?Men yo‘lnimi yo yo‘l meni tanladimi? Ozg‘ingina qizginaning ozg‘ingina qo‘li uzatgan bu xat ortida otanamning, aka-uka, opa-singillarim, oshno-yu begonalar, muallimlarim, bari eldoshlarimning so‘roq to‘la ko‘zlari har kun, har soat mendan so‘z so‘rayotgandek, go‘yoki bu xatchani minglab, yuz minglab qo‘llar uzatgan-u, hali ham shu alfozda havoda muallaq qolib, mening javob berishimni kutayorgandek.”Beixtiyorlikda bormu menda ixtiyor?”[3:553]

Ko‘rinadiki, shoirlik muallif uchun tiriklikning, yashamoqning bosh mezon, mazkur mezonni inson ixtiyoridagi omillar bilan o‘lchovga solib bo‘lmaydi.

Xulosa. Shoir “Ey, menga daryoday dil bergan Vatan” deb nomlangan badiasi istiqloldan avvalgi va keyingi gurunglar to‘g‘risida ekanligini yozadi. Badiada shoirning bolaligi, oilasi, qatag‘on davri xalq boshiga tushgan fojialar, ikkinchi jahon urushi ofatlari va bularga mushtarak tarzda yoshi, kasb-kori, ijtimoiy ahvolidan qat‘i nazar barchani birlashtirib turadigan Vatan haqida hikoya qilinadi. Esseda oddiy qishloq kishilari misolida “O‘zbek ishi”, paxta yakka hukmronligi davri talafotlari tadrijiy ravishda hikoya qilinib, o‘zbek dehqoninig mashaqqatli mehnati, biroq shu zahmatga yarasha jamiyatda qadrsiz bo‘lib qolgan inson hayoti orqali katta ijtimoiy-ma‘naviy muammolar qalamga olinadi. Sirojiddin Sayyid publitsistikasida she‘r va shoirlik maqomi haqida badiiy-falsafiy qarashlarining alohida o‘rni bor. Uning “Shoir va shoirchilik” nomli badiasida ijodkor o‘z zamonasining, avvalo, o‘z ko‘nglining vijdoni hamda hakami ekanligini ta‘kidlaydi.



Sirojiddin Sayyid bugungi adabiy jarayon borasida nihoyatda dolzarb masalani (balki muammoni) o'rtaga tashlaydi va ularga yechim ko'rsatish yo'lidan boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi: T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.
2. Сирожиддин Саййид. Асарлар. I жилд. – Тошкент: “Шарқ”, 2018.
3. Сирожиддин Саййид. Асарлар. II жилд. – Тошкент: “Шарқ”, 2018.
4. Сирожиддин Саййид. Асарлар. III жилд. – Тошкент: “Шарқ”, 2018.
5. Сирожиддин Саййид. Асарлар. IV жилд. – Тошкент: “Шарқ”, 2019.
6. Курбонова С. Ёзувчи публицистикасининг тараққиёт тамойиллари. –Тошкент. “Мухаррир”. 2012.
7. Тоғаев О. Ўзбек бадиий публицистикаси (назария ва маҳорат масалалари). –Тошкент. Фан. 1973.

